

TOKEN ORQALI BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH MASALALARI

Xazratov Mexriddin Faxriddin o'g'li | h.mex@mail.ru

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqola(tezis)da token orqali biznesni moliyalashtirish masalalari va muammolari tahlil qilinadi. Biznes sohasida tokenning o'rni hamda uni moliyalashtirishning mazkur turi orqali vujudga keluvchi huquqiy muammolar hamda mazkur sohada ilmiy ishlar amalga oshirgan olimlarning fikr mulohazalari o'rganish orqali mulallfining xulosalari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: biznes, token, elektron-pul, jeton, kripto-birlik, kripto-birja, tokenizatsiya, blokchain.

TOKEN BUSINESS FUNDING ISSUES

Khazratov Mehriddin Fakhriddin ogli

Master's degree student of Tashkent State University of Law

Abstract. This article (thesis) analyzes issues and problems of business financing through tokens. The conclusions of the author are presented by studying the role of the token in the business sector and the legal problems arising from this type of financing, as well as the opinions of scientists who have carried out scientific work in this field.

Keywords: business, token, electronic money, token, crypto-unit, crypto-exchange, tokenization, blockchain.

Elektron pul tushunchasi o'tgan asrning 80-yillarida David Li Chaum tomonidan tilgan olingan termin hisoblanadi[1]. Kriptoalyuta esa mazkur olimning bundan tashqari, Stefan Brands va- Moni Noar[2] birgalikda elektron pul va hamda uning harakatlanishiga doir ko'plab ishlar amalga oshirildi. Keyinchalik elektron pulning tizimli bloklarda (blokchainda) orqali amalga oshirilishi bo'yicha AQSH olimlari S. Xaber va V. Skott[3] ishlari e'tiborga molik hodisadir. 2008-yilda Satoshi Nakamoto taxallusi ostida bir shaxs yoki bir guruh odamlar "peer-to-peer" tarmog'i shaklida, to'lov tizimining ishlash tamoyilini tavsiflovchi protokol faylini nashr etdi. Satoshining so'zlariga ko'ra, bu jarayon 2007-yilda boshlangan[4]. 2009-yilda u protokolni ishlab chiqishni yakunladi va dastur-mijoz kodini nashr etdi.

Aksariyat mamlakatlarda jismoniy va yuridik shaxslarning o'zaro munosabatlarini cheklashga, ko'plab xizmatlar turlarini onlayn formatga o'tkazishga majbur qilgan COVID-19 pandemiyasi raqamli huquqlarni jamiyat va davlatning diqqat markazida bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ushbu jarayonlarda blokcheyn texnologiyasidan so'ng, token takliflari korporativ moliyalashtirishning yangi usuli sifatida paydo bo'lib, bu orqali kompaniyalar odatda kriptoalyuta yoki fiat pul evaziga jamoatchilikka qandaydir qiymatni ifodalovchi raqamli tokenlarni sotadilar[5].

"Token" atamasi ko'plab tor yo'nalishdagi ma'nolarga ega. Jumladan, uni "pul o'rnini bosuvchi tangaga o'xshash jeton"; "foydalanuvchini avtorizasiya qilish va uni identifikasiya qilish uchun ishlatiladigan kalit"; "stol o'yinidagi har qanday o'yin elementini almashtiradigan jeton yoki karta"; "blokcheyn tarmog'idagi hisob birligi" va boshqa tushunchalar bilan ifodalashadi.

Texnologik tuzilmalarda davom etayotgan o'zgarishlar tufayli tokenlarning fuqarolik muomalasidagi o'zni va roli haqidagi munozaralarni o'z vaqtida va dolzarb, deb hisoblaymiz. Fuqarolik huquqi ob'ekti sifatida tokenga nisbatan yagona pozitsiyani ishlab chiqish empirik va nazariy bilimlarni sintez qilmasdan bo'lishi mumkin emas. 2015 yilga kelib token va uning huquqiy mohiyati bo'yicha ilk o'rganishlar boshlangan. Jumladan, M. Santori "Appcoin Law: ICOs the Right Way"[6] va F. Ehrsam "How to Raise Money on a Blockchain with a Token"[7] kabi tadqiqotlarni ko'rsatish mumkin.

A. Polatovning[8] tadqiqotlariga asosan, token biznes-jarayonlarning "raqamli transformasiyasi" mahsuli sifatida huquqning "haqiqiy" ilmiy muammosidir.

N.S. Minko[9], L.A. Novoselova[10], S.V. Ovseyko[11] lar ham o'z maqola va asarlarida mazkur fikr-mulohazalarni ilgari surganlar.

O.Narziev qayd etganidek, "yangi texnologik vosita xususiy huquq sohasida bir qator savollarni tug'diradi, masalan, tokenning huquqiy tabiati, mulk huquqining o'tkazilishi yoki ushbu markazlashtirilmagan muhitda token egasining huquq va majburiyatlari, taraflarning javobgarligi kabi huquqiy munosabatlarning asosiy qoidalari qanday qo'llanilishi dolzarb masalaga aylandi"[12].

Ma'lumki, raqamli iqtisodiyotni yaratish va raqamli makonda fuqarolik aylanmasini kengaytirish, ya'ni raqamli ob'ektlarning o'zlari va ularga bo'lgan huquqlarni sotiladigan fuqarolik huquqlarining obyektlari doirasiga kiritish orqaligina bo'lishi mumkin.

Tokenning fuqarolik huquqlarining obyekti sifatidagi huquqiy holatini ilmiy o'rganish O'zbekiston Respublikasi raqamli iqtisodiyotining barcha sohalarida token bilan ishlash amaliyotini joriy etish va undan samarali foydalanig imkonini beradi.

Fuqarolik huquqining ilmiy muammolari doirasida zamonaviy makroiqtisodiy sharoitlarda fuqarolik huquqlari ob'ekti sifatidagi tokenning nazariy va huquqiy mohiyatini aniqlash, fuqarolik muomalasining xususiyatlarini aniqlash masalalari bo'yicha tadqiqotishlarini olib borish va shu asosda sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish talab etiladi[13].

Andrew Romans va Tim Draperning qayd etishicha, "Blokcheyn texnologiyasining paydo bo'lishi ko'plab boshqa yangi texnologiyalar va xizmatlarning yaratilishiga turtki berdi. Ushbu texnologiyalardan biri tokenizasiyadir. Blokcheynning tobora ommalashib borishi bilan ushbu texnologiya bilan birgalikda tokenizasiyani qo'llash bo'yicha turli xil dasturlar va takliflar paydo bo'ldi. Tokenizasiya jismoniy aktivga bo'lgan huquqlarni raqamli tokenga aylantirishga imkon beradi"[14].

Chen Yanning qayd etishicha, "Aktivlarni tokenizasiya qilish deganda haqiqiy aktivning qiymatini ifodalovchi tokenlarni chiqarish tushuniladi. Blokcheyn tokenlari tadbirkorlarga mablag' yig'ish va manfaatdor tomonlarni jalb qilishning yangi usulini taqdim etish orqali tadbirkorlikni demokratlashtirishi mumkin. Shuningdek, ular innovatorlarga markazlashtirilmagan dasturlarni

ishlab chiqish, joylashtirish va tarqatishning yangi usulini taqdim etish orqali innovatsiyalarni ham demokratlashtirishi mumkin"[15].

Shunga ko'ra, biznesni raqamlashtirishning ijtimoiy yo'nalishi kichik biznes uchun investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan ushbu munosabatlarni huquqiy tartibga solish alohida o'rin tutadi, chunki huquqiy noaniqlik bugungi kunda tokenizatsiya uchun asosiy to'siq sifatida tan olingan. Aynan xususiy huquq iqtisodiyotda raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning yangi vositalarini ishlabchiqish imkoniyatiga ega. Tokenizatsiya jarayonlari paydo bo'layotgan iqtisodiy imkoniyatlarni ham, huquqiy muammolarni ham aniq namoyish etmoqda.

O.S. Narziev to'g'ri qayd etganidek, "Bugungi kunda tokenlarning huquqiy tabiatini ko'rib chiqishda ularning huquqiy va soliq xususiyatlarini aniqlash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu o'z navbatida tokenning huquqiy kvalifikatsiyasi uni yaratuvchining huquqiy maqomi, uning huquq va majburiyatlari, token savdosi qoidalari va boshqa tomonlarga, ya'ni tokenlar xaridorlari yoki vositachilarga nisbatan qo'yiladigan talablar kabi masalalarda huquqiy tizim va asos bo'lishini talab etmoqda"[12].

A.Polatovning fikrlarini qo'llab quvvatlagan holda, shuni qayd etishimiz mumkinki, token fuqarolik huquqlarining obyekti hisoblanadi.

Fuqarolik huquqlari obyektlari tizimida uni "mol-mulk" deb hisoblash mumkin. Ushbu pozitsiya fuqarolik muomalasida tokenlardan foydalanishning funktsionalligi va maqsadini aks ettiradi.

Yana bir muhim masalaga e'tibor qaratish zarur. Yuqorida keltirilgan tokenning umumiy talqini uning alohida turlarini qimmatli og'oz sifatida tokenga aylantirish imkoniyatini istisno etmaydi. Shu bilan bir qatorda, tokenlarning ayrim turlarini (kriptoalyuta, securities-tokenlar) qimmatli qog'ozlar sifatida qonuniylashtirish ham mumkin. Biroq, tokenning fuqarolik huquqlari obyekti sifatida tan olinishi mutlaq emas.

Token blokcheyndagi yozuv sifatida nimani tasdiqlashiga qarab, u fuqarolik huquqlari obyekti bo'lmasligi mumkin.

Shunday qilib, normativ-huquqiy hujjatlarni raqamli iqtisodiyotning zamonaviy tendensiyalariga muvofiqlashtirishda qonun chiqaruvchi tokenlar tasnifining huquqiy ahamiyatini hisobga olishi kerak.

Ko'rsatilgan takliflar investorlar, jamiyat va davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlarini to'liq himoya qilishni ta'minlash maqsadida milliy qonunchilikka kiritilishi kerak.

Biroq, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi xususan, Fuqarolik Kodeksining 94-moddasiga asosan pul birligi "so'm" ekanligi qayd etilgan, shuningdek, mazkur kodeksning 245-moddasida, pul majburiyatlari chet el davlatining pul birligida hamda so'mga qiymatlangan holatda amalga oshirilishi mumkinligi qayd etilgan.

Milliy qonunchilikka asosan, tokenlardan O'zbekiston Respublikasi hududida to'lov yoki to'lov vositasi sifatida foydalanish mumkin emas. Ushbu qoidadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi hududida kriptovalyuta to'lov vositasi bo'lmagan aktiv hisoblanadi.

Bundan ko'rinadiki biznesni moliyalashtirishning ham token orqali amalga oshirilishi davlatimiz hududida huquqiy jihatdan tartibga solinishi kerak bo'lgan soha hisoblanadi.

REFERENCES:

1. <https://chaum.com/>
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Moni_Naor
3. <https://link.springer.com/article/10.1007/BF00196791>
4. Abd Aziz A. S., Noor N. A. M., Al Mashhour O. F. The money of the future: A study of the legal challenges facing cryptocurrencies //BiLD Law Journal. – 2022. – Т. 7. – №. 1s. – С. 21-33.
https://www.researchgate.net/publication/359108886_The_Money_of_The_Future_A_Study_of_The_Legal_Challenges_Facing_Cryptocurrencies
5. Lesche P., Sandner P., Treiblmaier H. Implications of the Token Economy: A Taxonomy and Research Agenda//Blockchains and the Token Economy: Theory and Practice. – 2022. – С. 1-30.
6. Santori M. Appcoin Law: ICOs the Right Way // URL:
<https://www.coindesk.com/appcoin-law-part-1-icos-the-right-way>
7. Ehrsam F. How to Raise Money on a Blockchain with a Token // URL:
<https://blog.coinbase.com/how-to-raise-money-on-a-blockchain-with-a-token-510562c9cd>
8. A.Po'latov: "Kriptoalyuta va tokenlar aylanmasini huquqiy tartibga solinishi" mavzusidagi Yupidik fanlap bo'yicha falsafa doktopi (PHD) ilmiy dapajacini olish uchun tayyoplangan disseptasiyasi. Toshkent-2023
9. Минько, Н. Правовой статус цифровых знаков (токенов) / Н. Минько, А. Филонов // Юстиция Беларуси: юридический научно-практический журнал. - 2018. - № 2. - С. 42-43
10. Новоселова, Л. "Токенизация" объектов гражданского права / Л. Новоселова // Хозяйство и право. -2017. - № 12. - С. 29-44
11. Овсейко, С. В. Декрет № 8: операции с криптовалютами и правовой эксперимент /С. В. Овсейко // Налоги Беларуси: научно-практический журнал Министерства по налогам и сборам Республики Беларусь. -2018. - № 2. - С. 77-86
12. Narziev.O.S. O'zbekistonda kapital bozorining huquqiy tizimini takomillashtirish masalalari. Monografiya. – Toshkent.: TDYuU, 2022. – B. 175-176 b

13. A.Po'latov: "Kriptoalyuta va tokenlar aylanmasini huquqiy tartibga solinishi" mavzusidagi Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktopi (PHD) ilmiy dapajacini olish uchun tayyoplangan disseptasiyasi. Toshkent-2023
14. Andrew Romans, Tim Draper. Masters of Blockchain: The rise of blockchain and crypto, the tokenization of the world's assets and what that means for startups, corporations and investors – CreateSpace Independent Publishing Platform, 2018.
15. Chen Yan. Blockchain tokens and the potential democratization of entrepreneurship and innovation // Business Horizons. 2018. № 64. P. 567–575